ZAMONAVIY ILM-FAN: FANLARARO INTEGRATSIYA VA INNOVATSION TARAQQIYOT

RESPUBLIKA ILMIY-AMALIY KONFERENSIYA

MAQOLA VA TEZISLAR TO‘PLAMI



“FANLARARO ILMIY TADQIQOTLAR” ILMIY-AMALIY METODOLOGIK JURNALI

“ZAMONAVIY ILM-FAN: FANLARARO INTEGRATSIYA VA INNOVATSION TARAQQIYOT” MAVZUSIDAGI RESPUBLIKA ILMIY-AMALIY KONFERENSIYA

MAQOLA VA TEZISLAR TO‘PLAMI
2026-yil 12-noyabr

Toshkent – 2026

ISSN:3093-9240

“Zamonaviy ilm-fan:fanlararo integratsiya va innovatsion taraqqiyot” mavzusidagi respublika ilmiy-amaliy konferensiya maqola va tezislar to‘plami (2026-yil 12-noyabr) – T.: FANLARARO ILMIY TADQIQOTLAR, 2026.

BOSH MUHARRIR:
Ashurov Ramzidin Ramazonovich
psixologiya fanlari bo‘yicha falsafa doktori (PhD), dotsent

TAHRIR KENGASHI
Ibragimova Gulsanam Ne’matovna
pedagogika fanlari doktori, professor

Mirzayeva Faroxat Odiljonovna
pedagogika fanlari doktori(DSc), professor

Bafayev Muxiddin Muxammatovich
psixologiya fanlari doktori (DSc), dotsent

Atabayeva Nargis Batirovna
psixologiya fanlari doktori (DSc), professor

Jabborov Xazrat Xusenovich
psixologiya fanlari doktori (DSc), professor

Alimova Yelena Gennadiyevna
psixologiya fanlari bo‘yicha falsafa doktori (PhD), dotsent

Ismatulloyev Abdullo Nasrulloyevich
psixologiya fanlari bo‘yicha falsafa doktori (PhD)

Bobojonov Shavkat Ulug‘bekovich
tarix fanlari bo‘yicha falsafa doktori (PhD), dotsent

Bo‘tayev Jonibek Shodiyevich
tarix fanlari bo‘yicha falsafa doktori (PhD)

PSIXOLOGIYAGA OID TADQIQOTLARDA SPSS DASTURIDAN FOYDALANISHNING METODOLOGIK ASOSLARI VA STATISTIK TAHLIL ANIQLIGINI TA’MINLASH

Nazarov Davron Baxtiyor o‘g‘li
Alfraganus universiteti
Pedagogika va psixologiya kafedrasi katta o‘qituvchisi
Psixologiya fanlari bo‘yicha falsafa doktori (PhD)

Annotatsiya: Mazkur tezisda psixologik tadqiqotlarda IBM SPSS Statistics dasturidan foydalanishning metodologik asoslari hamda empirik ma’lumotlarni statistik qayta ishlash jarayonida natijalarning aniqligi va ishonchliligini ta’minlash masalalari yoritilgan. Mahalliy, rossiyalik va xorijiy olimlarning ilmiy qarashlari asosida statistik mezonlarni tanlash, psixodiagnostik ma’lumotlarni tizimlashtirish va olingan natijalarni ilmiy talqin etishning muhim jihatlari tahlil qilingan. Shuningdek, statistik xatoliklar xavfini kamaytirish va psixologik tadqiqotlarning ilmiy asoslanganligini oshirishga qaratilgan metodologik yondashuvlar umumlashtirilgan.

Kalit so‘zlar: psixologik tadqiqot, SPSS, statistik tahlil, metodologiya, psixodiagnostika, empirik ma’lumotlar, ishonchlilik, validlik, korrelyatsiya, statistik ahamiyatlilik.

Аннотация: В настоящих тезисах освещаются методологические основы использования программы IBM SPSS Statistics в психологических исследованиях, а также вопросы обеспечения точности и достоверности результатов при статистической обработке эмпирических данных. На основе научных взглядов отечественных, российских и зарубежных учёных проанализированы важные аспекты выбора статистических критериев, систематизации психодиагностических данных и научной интерпретации полученных результатов. Также обобщены методологические подходы, направленные на снижение риска статистических ошибок и повышение научной обоснованности психологических исследований.

Ключевые слова: психологическое исследование, SPSS, статистический анализ, методология, психодиагностика, эмпирические данные, надёжность, валидность, корреляция, статистическая значимость.

Abstract: This conference paper examines the methodological foundations of using IBM SPSS Statistics in psychological research and addresses ways to ensure the accuracy and trustworthiness of results during the statistical processing of empirical data. Drawing on the scholarly perspectives of Uzbek, Russian, and other international researchers, it analyzes key aspects of selecting statistical tests, organizing

psychodiagnostic data, and scientifically interpreting the findings. It also synthesizes methodological approaches aimed at reducing the risk of statistical errors and strengthening the scientific rigor of psychological research.

Keywords: psychological research, SPSS, statistical analysis, methodology, psychodiagnostics, empirical data, reliability, validity, correlation, statistical significance.

KIRISH

Zamonaviy psixologiya fanida insonning individual-psixologik xususiyatlari, emotsional holatlari, motivatsiyasi va shaxslararo munosabatlarini ilmiy asosda o‘rganishda empirik ma’lumotlarni matematik-statistik usullar yordamida tahlil qilish muhim ahamiyat kasb etmoqda. Ayniqsa, psixologik ko‘rsatkichlar o‘rtasidagi bog‘liqliklarni aniqlash, guruhlararo farqlarni baholash va ilmiy gipotezalarni tekshirishda zamonaviy statistik dasturlardan foydalanish zarurati ortib bormoqda.

Psixologik tadqiqotlarda keng qo‘llaniladigan IBM SPSS Statistics dasturi empirik ma’lumotlarni tizimlashtirish, statistik qayta ishlash, korrelyatsion va regressiya tahlillarini amalga oshirish hamda natijalarni jadval va grafiklar orqali ifodalash imkonini beradi. Biroq statistik tahlilning aniqligi nafaqat dasturiy imkoniyatlarga, balki tadqiqot metodologiyasining to‘g‘ri tashkil etilishi, tanlanmaning xususiyatlari, psixodiagnostik metodikalarning ishonchliligi va validligi hamda statistik mezonlarning asosli tanlanishiga ham bog‘liq. Shu jihatdan, SPSS dasturidan foydalanishda ma’lumotlarning o‘lchov darajasi, taqsimot xususiyatlari va statistik mezonlarning qo‘llanish shartlarini hisobga olish, olingan natijalarni esa psixologik mazmun bilan bog‘liq holda talqin etish muhim hisoblanadi. Bu yondashuv natijalarning takror tekshirilishiga ham yordam beradi. Bunda tadqiqotchining statistik savodxonligi va metodologik mas’uliyati ham nihoyatda muhimdir. Zero, statistik jihatdan ahamiyatli natija har doim ham uning psixologik yoki amaliy ahamiyatini to‘liq ifodalamaydi. Shu bois psixologik tadqiqotlarda SPSS dasturidan foydalanishning metodologik asoslarini takomillashtirish va statistik tahlil aniqligini ta’minlash ilmiy natijalarning ishonchliligi hamda asoslanganligini oshirishning muhim shartlaridan biridir.

ASOSIY QISM

Psixologik tadqiqotlarda matematik-statistik tahlilning samaradorligi empirik ma’lumotlarni yig‘ish, tizimlashtirish, qayta ishlash va yakuniy ilmiy xulosalarni shakllantirish jarayonlarining metodologik izchilligiga bog‘liq. Shu nuqtayi nazardan, SPSS dasturini nafaqat hisoblash vositasi, balki tadqiqotning miqdoriy tahlil bosqichlarini tizimli tashkil etishga xizmat qiluvchi statistik platforma sifatida baholash maqsadga muvofiqdir.

Mazkur masalaning ilmiy-metodologik jihatlari mahalliy tadqiqotchilar

tomonidan ham o‘rganilgan. Xususan, T.S.Jalolov (2024) “SPSS dasturi yordamida ma’lumotlarni qayta ishlashning ijtimoiy psixologik xususiyatlari” nomli maqolasida zamonaviy psixodiagnostikada axborot-kommunikatsiya texnologiyalaridan foydalanish imkoniyatlarini yoritgan. Muallif kompyuterlashtirilgan texnologiyalar psixologik test va so‘rovnomalarni taqdim etish, tekshiriluvchilarning javoblarini qayd qilish, ma’lumotlarni saqlash, matematik qayta ishlash hamda natijalarni grafik shaklda ifodalash imkonini berishini ta’kidlaydi [1, 300–304-b.]. Tadqiqotchining yondashuvida psixodiagnostik jarayonlarni avtomatlashtirish ma’lumotlarni qayta ishlash tezligi va standartlashtirilishini oshiruvchi omil sifatida baholanadi. Ushbu qarashlar statistik hisoblash jarayonini samarali tashkil etish bilan birga, olingan natijalarni tadqiqotning nazariy asoslari va psixologik mazmuni doirasida talqin etish zarurligini ko‘rsatadi. SPSS dasturining amaliy imkoniyatlari Z.Yusupova va S.Ibragimova (2026) tomonidan “Sport faoliyatida statistik tahlilni amalga oshirishda SPSS dasturidan foydalanishning ahamiyati va dolzarbligi” nomli maqolada ham yoritilgan [2, 63–66-b.]. Tadqiqotchilar statistik tahlil sportchilarning tayyorgarlik ko‘rsatkichlarini baholash, mashg‘ulot jarayonidagi o‘zgarishlarni aniqlash va empirik natijalarni ilmiy asosda tahlil qilishga xizmat qilishini ko‘rsatadilar. Mazkur yondashuv psixologik tadqiqotlarda, jumladan, psixologik trening yoki korreksion mashg‘ulotlardan oldingi va keyingi xavotirlanish, motivatsiya hamda emotsional barqarorlik ko‘rsatkichlarini qiyosiy baholashda ham qo‘llanilishi mumkin. Bunda ma’lumotlarni to‘g‘ri kodlash, tavsifiy statistikani hisoblash va tadqiqot dizayniga mos statistik mezonlarni tanlash tahlil sifatini ta’minlovchi muhim shartlar hisoblanadi.

Psixologik ma’lumotlarni statistik qayta ishlashning nazariy-metodologik asoslari rossiyalik olimlarning ilmiy asarlarida ham tadqiq etilgan. Jumladan, O.Yu.Ermolaev (2019) “Математическая статистика для психологов” nomli asarida psixologik tadqiqotlarda matematik-statistik metodlardan foydalanishning nazariy va amaliy jihatlarini tizimli bayon etgan [3]. Muallif o‘lchov shkalalari, tanlanma xususiyatlari, statistik taqsimotlar, parametrik va noparametrik mezonlarning qo‘llanish tartibi, shuningdek, korrelyatsion, regressiya, dispersiya va omilli tahlil usullarini izohlaydi. Ermolaevning metodik yondashuvi statistik mezonlarni tanlashda o‘zgaruvchilarning o‘lchov darajasi, tanlanma xususiyatlari va tadqiqot vazifalarini hisobga olish zarurligini ko‘rsatadi. Ushbu tamoyillar SPSS dasturida statistik hisob-kitoblarni to‘g‘ri tashkil etish va natijalarning ilmiy asoslanganligini oshirish uchun muhimdir. Rossiyalik psixolog olim I.E.Visokov (2022) “Математические методы в психологии” nomli asarida psixologik tadqiqotlarda matematik metodlardan foydalanishning nazariy va amaliy asoslarini yoritgan [4]. Muallif psixologik eksperimentlarni tashkil etish, empirik ma’lumotlarni matematik qayta ishlash, avtomatlashtirilgan hisoblash usullaridan foydalanish va natijalarni ilmiy-psixologik

jihatdan interpretatsiya qilish masalalarini ko‘rib chiqadi. Uning metodik yondashuvi statistik usullarni tadqiqot vazifalariga muvofiq tanlash, ma’lumotlarni qayta ishlash bosqichlarini izchil tashkil etish hamda olingan ko‘rsatkichlarni psixologik qonuniyatlar bilan bog‘liq holda sharhlash zarurligini asoslashga xizmat qiladi. Ushbu qarashlar SPSS dasturidan foydalanishda statistik hisoblash jarayonining metodologik izchilligini ta’minlash va tadqiqot natijalarining ishonchliligini oshirish nuqtayi nazaridan ahamiyatlidir.

Xorijiy ilmiy adabiyotlarda SPSS dasturidan foydalanishning statistik va metodologik talablariga alohida e’tibor qaratilgan. Xususan, britaniyalik olim A.Field (2018) “Discovering Statistics Using IBM SPSS Statistics” nomli asarida statistik tahlilning nazariy asoslari, empirik ma’lumotlarni qayta ishlash bosqichlari va statistik modellarni qo‘llash shartlarini batafsil yoritgan [5]. Muallif tavsifiy statistika, korrelyatsiya, regressiya, dispersiya tahlili va noparametrik usullarni SPSS dasturida amalga oshirish jarayonini amaliy misollar asosida tushuntiradi. Uning yondashuvida statistik natijalarni talqin etishdan avval ma’lumotlarning taqsimot xususiyatlari, kuzatuvlarning mustaqilligi va tanlangan modelga qo‘yiladigan talablarni tekshirishga alohida ahamiyat beriladi. Ushbu metodologik tamoyillarga rioya etish statistik xatoliklar xavfini kamaytirish va tadqiqot natijalarining ishonchliligini oshirishga xizmat qiladi. Niderlandiyalik olim D.Lakens (2022) “Sample Size Justification” nomli ilmiy maqolasida empirik tadqiqotlarda tanlanma hajmini asoslash, statistik quvvatni baholash va natijalarning aniqligini ta’minlash masalalarini tahlil qilgan [6]. Muallif tanlanma hajmini belgilashda tadqiqot maqsadi, kutilayotgan ta’sir kattaligi, statistik quvvat va baholash aniqligini hisobga olish zarurligini asoslaydi. Uning yondashuviga ko‘ra, yetarli tanlanma hajmini aniqlash umumiy tavsiyalar bilangina cheklanmasdan, tadqiqotdan kutilayotgan axborot qiymatiga ham tayanishi lozim. Ushbu ilmiy qarash psixologik tadqiqotlarda tanlanma hajmini rejalashtirish, statistik xulosalarning aniqligini baholash va olingan natijalarning asoslanganligini kuchaytirishda muhim ahamiyat kasb etadi.

Yuqoridagi ilmiy yondashuvlarning tahlili psixologik tadqiqotlarda SPSS dasturidan foydalanish muayyan metodologik talablarga asoslanishini ko‘rsatadi. Avvalo, o‘zgaruvchilarning o‘lchov darajasini aniqlash va ma’lumotlarning xususiyatlariga mos statistik mezonlarni tanlash zarur. Jumladan, tegishli statistik shartlar bajarilganda uzluksiz o‘zgaruvchilar o‘rtasidagi chiziqli bog‘liqlikni baholashda Pirson, tartibli ko‘rsatkichlar yoki monoton bog‘liqliklarni aniqlashda esa Spirmen korrelyatsiya koeffitsiyentlaridan foydalanish mumkin. Guruhlararo farqlarni o‘rganishda esa tadqiqot dizayni va statistik model shartlariga muvofiq mustaqil tanlanmalar uchun Styudent t-mezoni, dispersiyalar tengligi talab etilmaydigan holatlarda Uelch t-mezoni, shuningdek, dispersiya tahlili (ANOVA) yoki tegishli

noparametrik mezonlar qo‘llaniladi. Statistik natijalarning aniqligini ta’minlashda psixodiagnostik metodikalarning ishonchliligi va validligini baholash ham alohida o‘rin tutadi. Xususan, Kronbax alfa koeffitsiyenti psixologik shkalalarning ichki muvofiqligini baholash imkonini bersa-da, uning yuqori qiymati metodikaning validligini to‘liq tasdiqlamaydi. Shuning uchun o‘lchov vositasining nazariy asoslari, psixometrik xususiyatlari va empirik ma’lumotlarning sifati kompleks o‘rganilishi lozim. Shuningdek, noto‘g‘ri kodlangan javoblar, yetishmayotgan qiymatlar, keskin chetga chiquvchi ko‘rsatkichlar va statistik model shartlarining buzilishi tahlil natijalariga salbiy ta’sir ko‘rsatishi mumkin. Bunday xatoliklarning oldini olish uchun SPSS dasturida ma’lumotlarni dastlabki tekshirish, tavsifiy statistikani hisoblash va zarur diagnostik tahlillarni amalga oshirish maqsadga muvofiqdir. Olingan natijalarni baholashda esa p-qiymati bilan bir qatorda ta’sir kattaligi, ishonch oralig‘i, tanlanma hajmi va amaliy ahamiyatni ham hisobga olish talab etiladi.

Shunday qilib, T.S.Jalolov hamda Z.Yusupova va S.Ibragimova tomonidan yoritilgan amaliy-metodologik jihatlar, O.Yu.Ermolaev va I.E.Visokovning matematik-statistik metodlarga oid qarashlari, shuningdek, A.Field va D.Lakensning statistik tahlil shartlari hamda tanlanma hajmini asoslashga doir ilmiy yondashuvlari o‘zaro mazmunan to‘ldiruvchi xususiyatga ega. Ularni umumlashtirish SPSS dasturidan samarali foydalanishda statistik hisoblash aniqligi, metodologik izchillik, ma’lumotlar sifati va natijalarni ilmiy-psixologik talqin etishning bir butun jarayon sifatida tashkil etilishi zarurligini ko‘rsatadi.

XULOSA VA TAKLIFLAR

Psixologik tadqiqotlarda IBM SPSS Statistics dasturidan foydalanish empirik ma’lumotlarni tizimlashtirish, statistik qayta ishlash va ilmiy natijalarni asosli baholash imkoniyatlarini kengaytiradi. Biroq statistik tahlilning aniqligi nafaqat dasturiy imkoniyatlarga, balki tadqiqot metodologiyasi, ma’lumotlar sifati va statistik mezonlarning to‘g‘ri tanlanishiga ham bog‘liq.

Mahalliy, rossiyalik va xorijiy olimlarning ilmiy qarashlarini umumlashtirish psixologik tadqiqotlarda statistik natijalarning aniqligi va ishonchliligini ta’minlash kompleks metodologik yondashuvni talab etishini ko‘rsatadi. Bunda tanlanma hajmini ilmiy asoslash, psixodiagnostik metodikalarning ishonchliligi va validligini baholash, ma’lumotlarning xususiyatlarini hisobga olish hamda statistik modellarni qo‘llash shartlariga rioya qilish muhim ahamiyat kasb etadi. Shuningdek, olingan statistik natijalarni psixologik mazmun bilan bog‘liq holda talqin etish ilmiy xulosalarning asoslanganligi va tadqiqot natijalarining amaliy ahamiyatini oshirishga xizmat qiladi.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR RO‘YXATI

1. Jalolov T.S. SPSS dasturi yordamida ma’lumotlarni qayta ishlashning ijtimoiy psixologik xususiyatlari // “Ta’lim va innovatsion tadqiqotlar”. – 2024. – № 2. – B.

300–304. https://doi.org/10.53885/edinres.2024.02.1.063

2. Yusupova Z., Ibragimova S. Sport faoliyatida statistik tahlilni amalga oshirishda SPSS dasturidan foydalanishning ahamiyati va dolzarbligi // “Fan-Sportga”. – 2026. – 9(2). – B. 63–66. https://doi.org/10.65149/fansport.2026.v9i2.a018

3. Ермолаев О.Ю. Математическая статистика для психологов: учебник. – 7-е изд., стер. – Москва: ФЛИНТА, 2019. – 336 с.

4. Высоков И.Е. Математические методы в психологии: учебник и практикум для вузов. – 2-е изд., перераб. и доп. – Москва: Юрайт, 2022. – 431 с

5. Field A. Discovering Statistics Using IBM SPSS Statistics. – 5th ed. – Thousand Oaks, CA: SAGE Publications, 2018.

6. Lakens D. Sample Size Justification // “Collabra: Psychology”. – 2022. – Vol. 8, № 1. – Article 33267. https://doi.org/10.1525/collabra.33267

MUNDARIJA

1.	**MAKTAB PSIXOLOGIYASI AMALIYOTIDA O‘SMIRLARDA SUITSIDAL XULQ-ATVORNING PSIXOLOGIK OMILLARI VA PROFILAKTIKASI** **Xayrullayeva Baxtigul Ilxomjon qizi**	**5**
2.	**JINOYATCHILIKKA QARSHI KURASHISHDA RAQAMLI TEXNOLOGIYALARNING O‘RNI VA ISTIQBOLLARI: XALQARO TAJRIBA, NAZARIYA VA AMALIYOT** **Jalilov Otabek Baxodirovich**	**10**
3.	**O‘SMIRLARDA PROBLEMATIK INTERNETDAN FOYDALANISHNING IJTIMOIY-PSIXOLOGIK DETERMINANTLARI VA PSIXOLOGIK PROFILAKTIKASI** **Mansurova Zeboxon Tursinboyevna**	**16**
4.	**PSIXOLOGIYAGA OID TADQIQOTLARDA SPSS DASTURIDAN FOYDALANISHNING METODOLOGIK ASOSLARI VA STATISTIK TAHLIL ANIQLIGINI TA’MINLASH** **Nazarov Davron Baxtiyor o‘g‘li**	**26**
5.	**O‘SMIRLARDA KASB TANLASH MOTIVATSIYASINI RIVOJLANTIRISHNING PSIXOLOGIK JIHATLARI** **Arslonova Nafosat Akbaraliyevna, Ashurov Ramzidin**	**32**
6.	**BO‘LAJAK BOSHLANG‘ICH TA’LIM O‘QITUVCHILARIDA INTEGRATSIYAGA ASOSLANGAN DARSLARNI TASHKIL ETISH KOMPETENSIYASINI SHAKLLANTIRISH** **Abdisharipova Shaydo Bahtiyor qizi**	**38**
7.	**ZAIF ESHITUVCHI O‘QUVCHILARNING EMOTSIONAL INTELLEKTINI RIVOJLANTIRISHDA PEDAGOG VA OTA-ONA HAMKORLIGI** **Abduqodirova Dilobarbonu Erkinjon qizi**	**46**
8.	**SHAXS TEMPERAMENT TIPLARINI QO‘L TERMOGIGROANALIZI ORQALI ANIQLASHNING PSIXOLOGIK VA PEDAGOGIK ASOSLARI** **Z.D. Dilmurodova**	**52**
9.	**СУБЪЕКТНО-ДЕЯТЕЛЬНОСТНАЯ АКТИВИЗАЦИЯ ЛИЦ ПОЖИЛОГО ВОЗРАСТА КАК ПСИХОПРОФИЛАКТИЧЕСКИЙ БАРЬЕР НЕЙРОДЕГЕНЕРАТИВНОЙ ПАТОЛОГИИ: ТЕОРЕТИЧЕСКАЯ МОДЕЛЬ** **Асанова Гузаль Мухарамовна, Иброхимов Хусниёр Абдукарим угли**	**58**
10.	**KIMYO TA’LIMIDA AN’ANAVIY VA INNOVATSION O‘QITISH METODLARINI UYG‘UNLASHTIRISHNING PEDAGOGIK ASOSLARI** **Sulaymonqulov Islomjon, Tursunova Yu. B.**	**63**
11.	**ZAMONAVIY TA’LIMDA PEDAGOGIK DIAGNOSTIKANING NAZARIY ASOSLARI VA FUNKSIONAL IMKONIYATLARI** **Usmonova Zuxra Alisher qizi, Tursunova Yu.B.**	**68**

12.	**AN’ANAVIY VA ZAMONAVIY DIDAKTIK PARADIGMALARDA TA’LIM NATIJALARINI TASHXISLASH YONDASHUVLARINING QIYOSIY TAHLILI**	
	Tursunova Feruza Otaqulovna	**73**
13	**ERTA NIKOHNING HUQUQIY VA PSIXOLOGIK OQIBATLARI**	
	Umarova Gulbaxor Maxamad qizi	**78**
14	**TA’LIMDA PSIXOLOGIK MOSLASHUVNING YANGI PARADIGMASI: RAQAMLI MUHIT, SHAXS VA PEDAGOGIK HAMKORLIK**	
	Qudratova Zarnigor Anvar qizi	**83**
15	**DINIY OG‘ISHLAR KONTEKSTIDA OMILLAR, PROFILAKTIKA VA PSIXOKORREKSIYA**	
	Agzamova Malika Muratovna, Turatoshova Zarnigor	**88**
16	**MILLIY VA ZAMONAVIY OILALARDAGI O‘ZARO FARQLAR. OILAVIY QADRIYATLAR, MULOQOT VA AVLODLARARO MUNOSABATLARNING IJTIMOIY-PSIXOLOGIK TAHLILI**	
	Abdumajidova Diyora Ashirqul qizi	**93**
17	**PALLIATIV YORDAMDA OILA A’ZOLARINING PSIXOLOGIK HOLATI: EMOTSIONAL TOLIQISH, QAYG‘U VA STRESS**	
	Bobomurotova Aziza Rustam qizi	**98**
18	**INKLYUZIV TA’LIM SHAROITIDA PEDAGOGLARDA EMOTSIONAL SO‘NISH SINDROMINING OLDINI OLISH - BARQAROR TA’LIM MUHITINING PSIXOLOGIK SHARTI**	
	N. Umirzakova	**102**
19	**OILALARDA SHAXSIY CHEGARALARNING O‘RNI: O‘ZBEK OILALARINING MILLIY-MADANIY QADRIYATLARI VA ZAMONAVIY PSIXOLOGIK EHTIYOJLARI KONTEKSTIDA**	
	Abdumajidova Diyora Ashirqul qizi	**106**
20	**IJTIMOIY TARMOQLARDAGI IDEAL AYOL OBRAZI VA AYOLLARDA AYBDORLIK HISSINING SHAKLLANISHI**	
	Shakirova Shahnozabonu Tuxta qizi	**111**
21	**SPECTRAL AND IMAGING SIGNATURES OF ACCRETION FLOWS AROUND ROTATING BLACK HOLES**	
	Ochiltosheva Durdonagul Zamon qizi	**115**
22	**ЭМОЦИОНАЛЬНЫЙ ИНТЕЛЛЕКТ КАК ФАКТОР ПСИХОЛОГИЧЕСКОГО БЛАГОПОЛУЧИЯ ЛИЧНОСТИ**	
	Хатамова Камилла Шухратовна, Баходирова Нозима Рустамовна	**121**
23	**BOSHLANG‘ICH SINF O‘QUVCHILARIDA FONETIK-FONEMATIK IDROKNI SHAKLLANTIRISHNING ILMIY-NAZARIY VA AMALIY ASOSLARI**	
	Boboqulova Surayyo Madrahim qizi	**127**
24	**ИЗМЕНЕНИЕ ВНУТРИСЕМЕЙНЫХ ОТНОШЕНИЙ В УСЛОВИЯХ ДЛИТЕЛЬНОГО ЛЕЧЕНИЯ РЕБЁНКА С ОНКОЛОГИЧЕСКИМ ЗАБОЛЕВАНИЕМ**	
	Асанова Гузаль Мухарамовна	**130**
25	**MAKTABGACHA TA’LIMDA NUTQIY RIVOJLANISH**	**136**

	Ruziyeva Dilfuza Nuritdinovna	
26	**СОЦИАЛЬНОЕ СРАВНЕНИЕ В ЦИФРОВОЙ СРЕДЕ КАК ФАКТОР СНИЖЕНИЯ САМООЦЕНКИ ЛИЧНОСТИ**	
	Асанова Гузаль Мухарамовна, Юсупбаева Гоззал Юсупбаевна, Ганибекова Ситора Отабековна, Мадаминова Гулчехра Мардонбековна	**141**
27	**MAKTABGACHA YOSHDAGI BOLALARNI KASB HUNARGA QIZIQISHLARINI OSHIRISH TEXNOLOGIYASI**	
	Sharipova Guzal Sodiqovna, Musayeva Madina Jahongir qizi	**145**
28	**ФАКТОРЫ, ВЛИЯЮЩИЕ НА ПСИХОЛОГИЧЕСКОЕ ЗДОРОВЬЕ СТУДЕНТОВ И ИХ РОЛЬ В РАЗВИТИИ ОБЩЕСТВА**	
	Асанова Гузаль Мухарамовна, Раимжанова Севинч Олимовна, Марсакова Малика Фазилиддин кизи, Махмудова Ширин Муроджон кизи	**153**
29	**IJTIMOIY TARMOQLARDAGI LAYK VA IZOHLARNING O‘SMIRLARDA TASHQI BAHOLANISHGA EHTIYOJ SHAKLLANISHIGA TA’SIRI**	
	Maxmudov Salimjon Uralovich	**158**
30	**ВЛИЯНИЕ СОЦИАЛЬНЫХ СЕТЕЙ НА ВОСПРИЯТИЕ СОБСТВЕННОЙ ЛИЧНОСТИ И САМООЦЕНКУ**	
	Асанова Гузаль Мухарамовна, Багаутдинова Саида, Курамшина Алия	**164**
31	**MOLIYAVIY STRESSNING IQTISODIY QAROR QABUL QILISH JARAYONIGA TA’SIRI**	
	Sotvoldiyeva Nargiza Abdukarimjon qizi	**168**
32	**ШКОЛЬНЫЙ БУЛЛИНГ И ЕГО ВЛИЯНИЕ НА ПСИХОЛОГИЧЕСКОЕ БЛАГОПОЛУЧИЕ ПОДРОСТКОВ: ПРИЧИНЫ, ПОСЛЕДСТВИЯ И ПРОФИЛАКТИКА**	
	Асанова Гузаль Мухарамовна, Абдуллаева Манзура Олимбек кизи, Солтоева Мадинахон Дилшод кизи	**172**
33	**O‘SMIRLARDA DEVIANTLILIKNING KONATIV ASPEKTLARINI TADQIQ ETISHDA FANLARARO INTEGRATSIYA VA INNOVATSION PSIXOLOGIK YONDASHUVLAR**	
	Turayeva Gulchehra Urayimovna	**179**
34	**СПЕЦИФИКА ТЕЛЕСНЫХ ЖАЛОБ У ЛИЦ С РАЗЛИЧНОЙ ВЫРАЖЕННОСТЬЮ АЛЕКСИТИМИИ**	
	Асанова Гузаль Мухарамовна, Панасырова Сабина Вячеславовна, Набижанова Нигорахон Нематжановна, Герман Карина Алексеевна	**184**
35	**“NS-PSIXOTEST EKSPERT” KOMPYUTERLI PSIXODIAGNOSTIK MAJMUASINING ZAMONAVIY PSIXOLOGIK TADQIQOTLARDAGI IMKONIYATLARI**	
	Mavlanov Donyor Ergash o‘g‘li	**191**

36	**ПСИХОЛОГИЧЕСКИЕ ЗАЩИТНЫЕ МЕХАНИЗМЫ КАК ФАКТОР ФОРМИРОВАНИЯ ЭМОЦИОНАЛЬНОЙ БЛИЗОСТИ В МЕЖЛИЧНОСТНЫХ ОТНОШЕНИЯХ** **Асанова Гузаль Мухарамовна, Слодкина Валерия Дмитриевна, Хисаметдинова Элина Эмильевна**	**197**
37	**BUXORO VILOYATI SHAROITIDA KICHIK QUVVATLI SHAMOL ELEKTR QURILMALARINING ENERGETIK KO‘RSATKICHLARINI VEYBULL TAQSIMOTI ASOSIDA BAHOLASH VA OPTIMAL TURBINA TANLASH** **D.A. Tursunov, N.A. Nasulloyeva**	**201**
38	**PLUGLARNING TURLARI VA ULAR BILAN TUPROQQA ASOSIY ISHLOV BERISH AHAMIYATI** **Fayzulloyev Muxriddin Nasriddin o‘g‘li, Sayfulloyev Azizbek Anvarjon o‘g‘li, Orziyev Sardor Samandar o‘g‘li**	**208**
39	**BUXORO VILOYATI ISSIQ IQLIM SHAROITIDA FOTOELEKTR MODULLARNING HARORAT REJIMINI MODELLASHTIRISH VA PASSIV RADIATORLI SOVITISH SAMARADORLIGINI BAHOLASH** **D.A. Tursunov, U.Q. Shermetov**	**215**
40	**“BUXORO HETK” AJ TAQSIMLOVCHI TARMOQLARIDA SUN’IY INTELLEKT VA MASHINALI O‘QITISH USULLARINI QO‘LLASH** **A.H. Shoboyev, N.M. Amrulloyeva**	**223**
41	**PAXTA SANOATIDA TOSH TUTGICH QURILMASINI AHAMIYATI VA ISHLASH MEXANIZMI** **Raxmonov Xayridin Qodirovich, Baxshilloyeva Shaxrizoda Davlat qizi**	**230**
42	**O‘ZBEK SHE’RIYATIDA “VATAN” KONSEPTINING KONTRASTLAR ORQALI IFODALANISHI** **Xolmo‘minova Mahliyo Ravshan qizi**	**234**
43	**АНГЛИЙСКИЕ ЗАИМСТВОВАНИЯ В СОВРЕМЕННОМ УЗБЕКСКОМ ЦИФРОВОМ ДИСКУРСЕ: ТЕМАТИКО-КОНЦЕПТУАЛЬНЫЙ И СТРУКТУРНО-СЕМАНТИЧЕСКИЙ АНАЛИЗ** **Тураханов Акром Абдуллахакимович, Тураханова Фируза Шавкатовна**	**238**
44	**BUYUK DAVLAT ARBOBI ZAHIRIDDIN MUHAMMAD BOBUR** **Anarkulova Zubayda Fayzullo qizi**	**256**
45	**INNOVATIVE APPROACHES TO TRANSFORMING LIFELONG EDUCATION: FOREIGN EXPERIENCE, PROBLEMS AND SOLUTIONS** **Akrom Abdullakhakimovich Turakhanov, Firuza Shavkatovna Turakhanova**	**261**
46	**LINGUODIDACTIC FOUNDATIONS FOR DEVELOPING STUDENTS’ PRODUCTIVE LANGUAGE SKILLS IN ENGLISH** **Meylinorova Feruza Baxtiyor qizi**	**269**

47	**HOZIRGI O‘ZBEK RAQAMLI DISKURSIDA INGLIZCHA O‘ZLASHMALARNING MAVZUVIY-KONSEPTUAL VA STRUKTURAVIY-SEMANTIK MOSLASHUV XUSUSIYATLARI**	
	Turaxanov Akrom Abdullaxakimovich, Turaxonova Firuza Shavkatovna	**275**
48	**SUN’IY INTELLEKT VA O‘ZBEK ADABIYOTI: MUALLIFLIK, INTERTEKSTUALLIK VA BADIIY QIYMAT MASALALARI**	
	Narmatova Manzura Tulaganovna	**289**
49	**PRAGMATIC TRANSFER AND CULTURAL BIAS IN LARGE LANGUAGE MODEL TRANSLATIONS OF HIGH-CONTEXT SPEECH ACTS**	
	Nurullayev Mirzabek Kobil ugli, Usmonkulova Nilufar Uchkun kizi	**298**
50	**THE ROLE OF ARTIFICIAL INTELLEGENCE IN EDUCATION: OPPORTUNITIES, PROBLEMS, PROSPECTS**	
	Teshaboyeva Jasmina Elmuradovna, N.Kh.Kholmakhmadova	**303**
51	**TILSHUNOSLIKDA ETNOGRAFIK LEKSIKANING NAZARIY ASOSLARI**	
	Xolmurodova Parvena Mamayusupovna, Bakirov Poyan Uralovich	**307**

Tahririyatga taqdim etilgan materiallar qaytarilmaydi. Barcha ilmiy maqolalar tahririyat tomonidan dastlabki ko‘rib chiqish, ilmiy ekspertiza va taqriz jarayonidan o‘tkaziladi. Jurnalning mavzu va ilmiy yo‘nalishlariga mos kelmagan, tahririyat tomonidan belgilangan talablar hamda nashr etish mezonlariga javob bermagan maqolalarni nashrga qabul qilmaslik huquqi tahririyatda saqlanadi.

***

“Fanlararo ilmiy tadqiqotlar” ilmiy-amaliy metodologik jurnali barcha ta’lim muassasalari va ilmiy izlanuvchilarni hamkorlikka chorlaydi.

Muassis: “Fanlararo ilmiy tadqiqotlar” MCHJ
“Fanlararo ilmiy tadqiqotlar” MCHJ nashriyotida nashrga tayyorlandi va jurnalning rasmiy veb-saytiga joylashtirildi
Tahririyat manzili: Toshkent shahri, Sergeli tumani, Yangi Bunyodobod MFY, 8-uy
Rasmiy veb-sayt: https://fanlararotadqiqotlar.uz/index.php/conference/r
E-mail: publisher@fanlararotadqiqotlar.uz